e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/etrmaw24

MAYKL HOROVITS SHE'RIYATIDA ANDEGRAUND HARAKATINING G'OYAVIY-ESTETIK TAMOYILLARI

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, dotsent, (PhD).
e-mail: maqsadxonhakimova@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-3593-4888

Annotatsiya.
Maqolada Maykl Horovits ijodi Ikkinchi jahon urushidan keyingi Britaniya andegraund harakatining g'oyaviy-estetik tamoyillari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. She'riyat va musiqaning uzviy birligi, Uilyam Bleyk an'analariga asoslangan vizioner tafakkur, rasmiy adabiy muhitga muqobil madaniy makon yaratish hamda ijtimoiy faollik shoir poetikasining asosiy xususiyatlari sifatida yoritiladi. Shuningdek, andegraund harakati g'oyalarining keyingi davrlardagi rivojlanishi va badiiy ifodasi *A New Waste Land* dostoni misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: andegraund harakati, kontrmadaniyat, jaz-poeziya, jonli ijro, vizioner she'riyat, Britaniya she'riy uyg'onishi.

ИДЕЙНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ АНДЕГРАУНДНОГО ДВИЖЕНИЯ В ПОЭЗИИ МАЙКЛА ХОРОВИЦА

Хакимова Максадхон Дилшодбековна
Узбекский государственный университет мировых языков, доцент, (PhD).

Аннотация.
В статье творчество Майкла Хоровица анализируется с точки зрения идейно-эстетических принципов британского андеграундного движения послевоенного периода. В качестве основных особенностей поэтики автора рассматриваются органическое единство поэзии и музыки, визионерское мышление, опирающееся на традиции Уильяма Блейка, создание альтернативного культурного пространства вне официальной литературной среды, а также социальная активность. Кроме того, дальнейшее развитие идей андеграундного движения и особенности их художественного воплощения рассматриваются на примере поэмы *A New Waste Land*.

Ключевые слова: андеграундное движение, контркультура, джазовая поэзия, живое исполнение, визионерская поэзия, британское поэтическое возрождение.

IDEOLOGICAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF THE UNDERGROUND MOVEMENT IN MICHAEL HOROVITZ'S POETRY

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna
Uzbekistan State World Languages University, Associate Professor, (PhD).

Abstract.
This article examines Michael Horovitz's literary work from the perspective of the ideological and aesthetic principles of the post-World War II British underground movement. The integration of poetry and music, visionary thought rooted in William Blake's literary tradition, the creation of an alternative cultural space beyond the established literary mainstream, and social engagement are explored as defining features of Horovitz's poetics. The article also considers the subsequent development of the underground movement's ideas and their artistic expression through an analysis of the poem *A New Waste Land*.

Keywords: underground movement, counterculture, jazz poetry, live performance, visionary poetry, British Poetry Revival.

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr ingliz she'riyati tarixida 50–60-yillar alohida o'rin tutadi. Bu davrda nazm haqidagi tasavvurning o'zi o'zgardi: bu paytga kelib she'riyat qalin kitoblar, baland minbarlar va universitet ma'ruza zallaridan qahvaxonalar, klublar va konsert zallariga ko'chdi, musiqa bilan birlashdi, tinglovchi bilan bevosita muloqot vositasiga aylandi. Adabiyotshunoslikda bu jarayon odatda andegraund harakati va Britaniya she'riy uyg'onishi (British Poetry Revival) tushunchalari bilan bog'lab o'rganiladi. Liverpul shoirlari ijodiga bag'ishlangan avvalgi tadqiqotlarimizda biz harakatning Mersi sohillaridagi ko'rinishini – she'rning ommaviy madaniyat va estrada bilan yaqinlashuvini tahlil qilgan edik [13]. Biroq harakatning poytaxtdagi markazi, uning g'oyaviy dasturi va tashkiliy asoslari hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, bugungi adabiyotshunoslikda tadqiq etilishi talab qilinayotgan dolzarb masalalardandir.

Mazkur maqolaning maqsadi andegraund harakatining asosiy g'oyaviy-estetik tamoyillarini Maykl Horovits (1935–2021) ijodi misolida aniqlashdan iborat. Shoir faoliyatida harakatning ijodiy, nazariy va tashkiliy qirralari bir nuqtada

ISSN 3060-5059 (Online)

kesishganini ko‘rishimiz mumkin. U 1959-yilda New Departures jurnaliga asos solib, 1960-yillar boshida turli she’riyat va jaz kechalarini uyushtirgan bo‘lsa, tashkilotchilardan biri sifatida 1965-yilda Albert-xollda yirik she’riyat kechasini o‘tkazdi va 1969-yilda harakatning ilk antologiyasi – Children of Albion: Poetry of the Underground in Britain (Albion farzandlari: Britaniyadagi andegraund she’riyati) to‘plamini nashr ettirdi. R. Xempsonning fikriga ko‘ra, «1960-yillarda Birlashgan Qirollik rivojlanib borayotgan kontrmadaniyatning bir qismi sifatida she’riy yuksalishni boshdan kechirdi. Buni she’riy kechalar ommaviyligining oshgani tasdiqlaydi va bunga katta darajada Maykl Horovitsning sa’y-harakatlari sabab bo‘lgan» [2].

Horovits she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun, eng avvalo, uning she’r va she’riyat haqidagi qarashlariga murojaat qilish lozim. Shoir uchun she’r yozma matnning bir turi emas, balki jonli ijroda tug‘iladigan va ovozda yashaydigan hodisa edi. So‘nggi yillardagi suhbatlaridan birida u bolalikdagi taassurotlarini eslab, «she’riyat va musiqa haqidagi eng birinchi xotiralarim va kechinmalarim ularni yagona turtki va faoliyat sifatida qabul qilganim bilan bog‘liq», deydi va o‘z maqsadini «haqiqatni so‘zlaydigan lira-baxshilar faoliyati doirasini kengaytirish» deb ta’riflaydi [1]. Bu e’tirofda ikki muhim jihat bor. Birinchisi, she’r va musiqani ajralmas butunlik deb bilish; ikkinchisi, shoirni xalq og‘zaki ijodi vakili, ya’ni odamlar oldida haqiqatni kuylovchi baxshi sifatida ko‘rish. Shu ma’noda Horovits uchun jaz kechalari zamonaviy ermak emas, balki so‘z san’atining asl, an’anaviy tabiatiga qaytish yo‘li edi.

Ushbu qarash shoirning 1963-yilda o‘z jaz-she’rlari haqida bildirgan fikrida yanada aniq ifodalangan. Uning yozishicha, bu asarlarning to‘liq ta’siri ularni «biz yozganimizdek – yuzma-yuz, labdan quloqqa, hissiyotdan ongga qabul qilganingizda» seziladi; bunda «bir lahzalik tovushlarni qabul qilish yoki o‘zgartirish sizning ixtiyoringizda», ijro esa «har doim tasodifga o‘rin qoldiradi» [7]. Asl matndagi *face to face, lip to ear, hip to mind* qatorida so‘zlar tananing tashqi qismidan ichkari tomon – ongga qarab ketma-ket joylashtirilgan. *Hip* so‘zi esa ham tanani, ham jaz muhitidagi «ilg‘or, zamonaviy» ma’nosini anglatib, iboraga o‘yin tusini beradi. Muhimi shundaki, shoir tinglovchini tayyor matnni qabul qiluvchi sifatida emas, balki asarni o‘zgartira oladigan hammuallif sifatida ko‘radi. Andegraund estetikasidagi muallif va tinglovchi o‘rtasidagi masofaning qisqarishi, matnning turg‘un va yopiq emas, o‘zgaruvchan va ochiq asar sifatida tushunilishi aynan shu yerdan boshlanadi.

Bu tamoyil 1965-yil 11-iyunda Albert-xollda bo‘lib o‘tgan Xalqaro she’riyat kechasida (International Poetry Incarnation) keng miqyosda namoyon bo‘ldi. Yetti mingga yaqin tinglovchi qatnashgan kechada Allen Ginsberg, Lourens Ferlingetti, Gregori Korso kabi amerikalik shoirlar bilan bir qatorda ingliz shoirlari ham sahnaga chiqdilar, Horovits esa urushga qarshi yozilgan For Modern Man (Zamonaviy inson uchun) she’ridan parcha o‘qidi. Tadqiqotchilar bu kechani harakat tarixidagi burilish nuqtasi deb baholaydilar. K. Prestij doktorlik dissertatsiyasida «Buyuk Britaniyada andegraund muhitining yuzaga chiqishiga 1965-yil 11-iyundagi Albert-xoll she’riyat kechasi turtki bo‘lgan» [6; 21-b.], degan xulosaga keladi. Yu. Virtanen esa kechani arxiv hujjatlari va audioyozuvlar asosida qayta tiklab, uni matnlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijrochilar va tinglovchilar birgalikda yaratgan voqea sifatida o‘rganadi [8; 27–53-b.]. Bizningcha, bu yondashuv Horovitsning yuqorida keltirilgan qarashlari bilan to‘la uyg‘un: andegraund she’riyatida asar matnning o‘zidan ko‘ra kengroq, ya’ni ijro, makon va jamoa bilan birga mavjud bo‘ladi.

Horovits she’riyatining ikkinchi muhim tamoyili Uilyam Bleyk an’analariga tayangan vizioner tafakkur hisoblanadi. Britaniya She’riyat jamiyati shoir vafotidan so‘ng uni «erkin, jazdan ilhom olgan, radikal poetikaning tinim bilmas targ‘ibotchisi» deb atab, «uning yo‘lchi yulduzi Uilyam Bleyk edi, yondashuvi esa cheksiz darajada ko‘p qirrali bo‘lgan», deb yozadi. Xuddi shu manbada shoirning Light Motifs (Nur motivlari) turkumidan olingan quyidagi she’r keltiriladi [5]:

Enlightenment is sometimes breathing the street lamp out at dawn and reading pure light

Ushbu kichik parchada Bleyk poetikasiga xos bo‘lgan muhim g‘oya, chunonchi, oddiy narsada mangulikni ko‘ra bilish zamonaviy shahar manzarasiga ko‘chirilgan. *Enlightenment* so‘zi bir vaqtning o‘zida ham «ma’rifat, ruhiy yorishish», ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri «yoritish» ma’nosini beradi. Ma’rifat bu yerda kitob yoki falsafiy tizim orqali emas, balki tong otganda ko‘cha chirog‘ini «puflab o‘chirish» va «sof nurni o‘qish» kabi kundalik, deyarli bolalarcha harakat orqali keladi. Sun’iy yorug‘likdan tabiiy nurga o‘tish timsoli inson ongining tor qoliplardan erkin idrokka o‘tishini ifodalaydi. She’rning har bir qatoriga bitta-ikkita so‘z joylashtirilgan tuzilishi esa matnni sekin, nafas bilan o‘qishga undaydi va bu yana ovoz hamda ijroga yo‘naltirilgan poetikaning belgisidir.

Bleyk obrazi Horovits uchun shaxsiy ilhom manbayidan ko‘ra kengroq ma’noga ega edi. Children of Albion antologiyasining nomi Bleyk mifologiyasidagi Albion obraziga ishora qiladi, muqovasiga esa Bleykning Glad Day (Shodlik kuni) gravyurasi tushirilgan. L. Uokerning doktorlik dissertatsiyasida 1960-yillarda Bleyk merosining ommaviy, akademik va kontrmadaniy talqinlari bir-biridan ajralmagan holda, o‘zaro bog‘liq tarzda yashagani ko‘rsatiladi [9]. D. Hopkins esa Amerika «bit» shoirlari bilan bir qatorda Horovits to‘plagan Children of Albion shoirlarining Bleykdan qarzdorligi ilmiy adabiyotda ko‘p bor e’tirof etilganini qayd etadi [3; 55–56-b.]. Bu fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, Horovits Bleykni klassik meros sifatida emas, balki yangi avlodni birlashtiruvchi ramz sifatida qayta kashf etdi: shoir, rassom va kishilar diqqatini o‘ziga tortuvchi ovozga ega isyonkor bir shaxsda mujassam bo‘lishi mumkin, degan g‘oya andegraund ijodkorlari uchun namuna bo‘ldi. Horovitsning o‘zi ham she’rlarini rasm va kollajlar bilan birga yaratgani, kitoblarini o‘zi bezagani bu yaxlitlik g‘oyasining amaliy ifodasidir.

Uchinchi tamoyil rasmiy adabiy muhitga muqobil madaniy makon yaratish bilan bog‘liq. Horovits va uning safdoshlari yirik nashriyotlar va nufuzli tanqidchilar didiga bog‘liq bo‘lmaslik uchun o‘z jurnallari, kichik nashriyotlari, kitob do‘konlari va she’riyat kechalaridan iborat mustaqil tarmoq yaratdilar. New Departures jurnalining ilk sonidayoq Uilyam Berrouz va Semyuel Bekket asarlarining bosilishi bu tarmoqning xalqaro, avangard yo‘nalishini belgilab berdi. Children of Albion antologiyasi esa shu tarmoqda shakllangan oltmish uch nafar shoirni ilk bor keng o‘quvchilar ommasiga

tanishtirdi. B. Uilkinson kitobning oxiridagi muharrir essesiga alohida e'tibor qaratadi: uning fikricha, she'rlarning o'zi kabi muhim jihat shundaki, Horovitsning «yakunlovchi essesi 1950-yillar oxiridan o'sha paytgacha bo'lgan muqobil Britaniya she'riy muhitining hayajonli (garchi biroz mubolag'ali bo'lsa-da) sharhidir» [11; 20-b.]. Bizningcha, bu esse amalda harakatning manifesti vazifasini bajargan: unda andegraund she'riyati alohida shoirlar ijodining yig'indisi emas, balki o'z tarixi va dasturiga ega yaxlit hodisa sifatida taqdim etilgan.

Shu o'rinda Liverpul shoirlari bilan qiyosiy kuzatish o'rinli. Avvalroq ta'kidlaganimizdek, Adrian Henri, Rojer MakGaf va Brayn Pettenning ijodi ham maktab, auditoriya va «jiddiy» adabiyot qoliplariga qarshi o'laroq, oddiy tinglovchiga yaqin, sodda va hazilomuz tilda yaratilgan edi [12]. Biroq ikki yo'nalishning tayanchlari farqlanadi: Liverpul shoirlari ko'proq shahar turmushi va estrada madaniyatiga suyangan bo'lsa, Horovits she'riyati Bleyk vizionerligi, jaz improvizatsiyasi va xalqaro avangard tajribasiga tayanadi. Shu bois ularni bir harakatning ikki qanoti sifatida ko'rish mumkin.

To'rtinchi tamoyil – ijtimoiy faollik va pasifizm. Albert-xolldagi urushga qarshi chiqishdan tortib, 1980-yilda Vestminster abbatligidagi Shoirlar burchagida boshlangan Poetry Olympics (She'riyat olimpiadasi) festivallarigacha Horovits faoliyati tinchlik, ijtimoiy adolat va millatlararo birdamlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Festivallarda tanilgan shoirlar bilan bir sahnada yosh, notanish ijodkorlar, turli millat va madaniyat vakillarining chiqishi she'rni tor doiraning emas, balki jamiyatning umumiy boyligi deb bilgan andegraund qarashining mantiqiy davomi edi.

Harakat g'oyalarining keyingi taqdiri haqida so'z borganda, shoirning so'nggi yirik asari – 2007-yilda nashr etilgan A New Waste Land: Timeship Earth at Nillennium (Yangi xarobazor: Ming yillik bo'sag'asidagi Yer kemasi) dostoni T. S. Eliotning The Waste Land (Xarobazor) poemasi bilan ochiq muloqotga kirishganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Rasmlar bilan boyitilgan bu kollaj-doston zamonaviy jamiyatdagi urush, iste'molchilik va ma'naviy bo'shliqni tanqid qiladi. Shoir va tarjimon D. Vaysbort asarni «umidlari puchga chiqqan idealizm asari, 1960-yillarda ko'pchilikni o'ziga tortgan idealizm» deb baholaydi [10]. Bu ta'rifga qisman qo'shilish mumkin: dostonda 1960-yillar ishonchi bilan yangi asr voqeligi o'rtasidagi ziddiyat aniq seziladi. Ammo bizningcha, asarni faqat hafsalasizlik ifodasi deb bo'lmaydi. Eliot asariga tayangan holda uni qayta yozishning o'zi Horovitsning she'r hamon jamiyat bilan bahslasha oladi, degan ishonchini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, andegraund harakatining vizioner va ijtimoiy tamoyillari shoir ijodida so'nmadi, balki elegik ohang kasb etdi. Tahlil natijalari Maykl Horovits ijodida andegraund harakatining asosiy g'oyaviy-estetik tamoyillari izchil namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Birinchidan, shoir she'r va musiqani yagona hodisa deb bilib, she'rni jonli ijroga qaytardi va tinglovchini asarning hammuallifiga aylantirdi. Ikkinchidan, Uilyam Bleyk an'analariga tayanib, kundalik voqelikda ruhiy yorishishni ko'ra oladigan vizioner poetika yaratdi va Bleyk obrazini yangi avlodni birlashtiruvchi ramzga aylantirdi. Uchinchidan, jurnallar, kechalar va antologiyalardan iborat muqobil madaniy makon yaratib, harakatga tarixiy va dasturiy yaxlitlik bag'ishladi. To'rtinchidan, uning ijodi pasifizm va ijtimoiy adolat g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, bu g'oyalar so'nggi asarlarida elegik ohangda davom etdi. Horovits ijodini Liverpul shoirlari va boshqa andegraund ijodkorlari bilan birga o'rganish Ikkinchi jahon urushidan keyingi ingliz she'riyatining yaxlit manzarasini tiklashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freeman G. The 'Grandfather of Albion' at 80: Write Out Loud Interviews Michael Horovitz // Write Out Loud. – 2015. – URL: https://www.writeoutloud.net/public/blogentry.php?blogentryid=47697 (murojaat sanasi: 19.10.2026).
2. Hampson R. Lived History and the British Poetry Revival // Jacket2. – 2025. – URL: https://jacket2.org/reviews/lived-history-and-british-poetry-revival (murojaat sanasi: 19.10.2026).
3. Hopkins D. Avant-Garde Blake: From Francis Bacon to Oz Magazine // Bulletin of the John Rylands Library. – 2022. – Vol. 98, № 1. – P. 55–73. – DOI: https://doi.org/10.7227/BJRL.98.1.6.
4. Horovitz M. A New Waste Land: Timeship Earth at Nillennium. – London: New Departures, 2007.
5. Michael Horovitz, 4 April 1935 – 7 July 2021 // The Poetry Society. – 2021. – URL: https://poetrysociety.org.uk/?p=123064 (murojaat sanasi: 19.10.2026).
6. Prestidge K. A. Concrete Poetry and Conceptual Art: Connections, Communication and Interrelationships in Text-Image Movements from 1953–1980: PhD Thesis. – Derby: University of Derby, 2023. – DOI: https://doi.org/10.48773/q9358.
7. Sims M. Feature: Michael Horovitz – Face to Face, Lip to Ear, Hip to Mind // Poetry News. – 2014. – URL: https://poetrysociety.org.uk/publications-section/poetry-news/feature-michael-horovitz-face-to-face-lip-to-ear-hip-to-mind/ (murojaat sanasi: 19.10.2026).
8. Virtanen J. Poetry and Performance During the British Poetry Revival 1960–1980: Event and Effect. – Cham: Palgrave Macmillan, 2017. – IX, 209 p. – DOI: https://doi.org/10.1007/978-3-319-58211-5.
9. Walker L. William Blake in the 1960s: Counterculture and Radical Reception: PhD Thesis. – Brighton: University of Sussex, 2015. – 194 p. – URL: http://sro.sussex.ac.uk/id/eprint/53244.
10. Weissbort D. A New Waste Land by Michael Horowitz // PN Review. – 2008. – Vol. 34, № 4 (180). – URL: https://www.pnreview.co.uk/archive/a-new-waste-land-by-michael-horowitz/3210.
11. Wilkinson B. Beats, Poets, Renegades: A 1960s Northern Poetry Underground and Its Countercultural Impact: MA (by Research) Thesis. – Preston: University of Central Lancashire, 2016. – 109 p.
12. Xakimova M. Liverpul shoirlari ijodida maktab poetikasi // Ilm vaqti. – 2026. – Vol. 4, № 5/1. – B. 155–161.
13. Xakimova M. Liverpul shoirlari – Mersi ovozi // Filologik tadqiqotlar. – 2025. – № 1. – B. 52–56.